

PEDAGOGIKA FANI VA UNING ASOSIY KATEGORIYALARI

Axtamova Iroda Madaminjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi
axtamovairoda536@gmail.com

Annotatsiya: Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihat — uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Аннотация: Педагогика – наука, относящаяся к системе общественных наук, изучающая проблемы воспитания и обучения подрастающего поколения и взрослых на основе идей национальной независимости. Дидактика (теория образования) и теория воспитания считаются важными составляющими науки, так как педагогическая наука акцентирует внимание на двух важных аспектах развития личности - ее обучении и воспитании.

Abstract: Pedagogy is a science belonging to the system of social sciences, which studies the problems of raising and educating the young generation and adults based on the ideas of national independence. Didactics (theory of education) and the theory of education are important components of the science, because the science of pedagogy focuses on two important aspects of the development of a person - his upbringing and education.

Kalit so’zlar: ilm-fan, pedagogika, ta’lim, didaktika, tarbiya, ta’lim nazariyasi, istiqlol g‘oyasi.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paidagogos «bola» va «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniylari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta’lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni berishga yo’naltiriladi. Umumiy ta’lim asosida o’zlashtirilgan ma’lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga imkon beruvchi maxsus ta’lim olishi uchun asos bo’ladi. Maxsus ta’lim — o‘zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda matabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

Tarbiya nazarivasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Tarbiva muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'naliislarda tashkil etiladi.

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilar bolalarni o'zlar bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizini kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilar yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganjar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlar, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriva deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlaming umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriylar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

- Shaxs — psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.
- Tarbiva — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni hartomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.
- Ta'lim — o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

“Ta’lim” kategoriyasi pedagogikada asosiy kategoriyalardan biridir. Kontseptsiya doirasini tavsiflab, ular keng ijtimoiy ma’noda ta’limni, shu jumladan butun jamiyatning shaxsiyatiga ta’sirini va tor ma’noda ta’limni - shaxs xususiyatlari, munosabatlari tizimini shakllantirishga qaratilgan maqsadli faoliyat sifatida ajratadilar. va e’tiqodlar. Ta’lim ko’pincha mahalliy ma’noda - muayyan ta’lim muammosini hal qilish sifatida talqin qilinadi.

- Bilim — shaxsnинг ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
- Ko'nikma - shaxsnинг muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
- Malaka — muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.
- Ma'lumot — ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.
- Rivoilanish — shaxsnинг fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'lgan rniqdar va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxsiy *rivojlanish* tashqi va ichki ijtimoiy va tabiiy, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Insonni tarbiyalash jarayonida uning rivojlanishi sodir bo'ladi, uning darajasi keyinchalik tarbiyaga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi.

Pedagogika fanining tadqiq qilish ob'ekti, va u o'rganadigan sohalari yildan-yilga ortib, kengayib va rivojlanib bormoqda. Natijada uning tarmoqlari ham bir necha guruhlarga ajralmoqda va mustaqil soha sifatida o'rganilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb nomlanadi.

Pedagogika fanini ulkan katta daraxtga qiyoslash mumkin. Har bir fan o‘z rivojlanishida, o‘z nazariyalarini boyitadi, o‘zining ichki amaliy yo‘nalishlariga tayanib takomillashib boradi. Hozirgi vaqtida pedagogika fani o‘z fanlari tizimida:

1. Umumiy pedagogika (insonga, shaxsga ta’lim-tarbiya, ma'lumot berish shakli, mazmuni, usullari va ularni shakllantirishning, tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi va amaliyotda qo'llashga o'rgatadi).
2. Yoshlar pedagogikasi (turli yoshdagи kishilarga ta’lim tarbiya berish, shaxsn shakllantirishning o‘ziga xos tomonlarini o'rganadi).
3. Maktab pedagogikasi (maktab yoshdagи o‘quvchilar ta’lim-tarbiya sohasining o‘ziga xos tomonlarini o'rganadi).
4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagи bolalarni o‘qitish, tarbiyalashning o‘ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Bizga ma'lumki, pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar ham muhim o'rinn tutadi. *Pedagogik texnologiyalar*- qo'yilgan ta’lim maqsadlarini muvaffaqiyatlil amalga oshirish imkonini beradigan ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslangan jarayonlarini takrorlash vositalari va usullari majmui. Optimal ta’lim tizimlarini loyihalash, ta’lim jarayonlarini loyihalash bilan shug'ullanadigan bu yo'naliш pedagogikaning yangi kategoriyasi sifatida 1950-yillarda paydo bo'ldi. Pedagogik texnologiyaning metodologiyadan (ta'limning klassik modelida qo'llaniladigan tushuncha) asosiy farqi shundaki, bu kategoriya tizimli-faoliyatdir. Texnologiya talabaga o'zining kognitiv faoliyati sub'ekti pozitsiyasini egallahsga, o'qituvchiga esa o'quvchining individual

rivojlanish traektoriyasini loyihalashga imkon beradi. Pedagogik texnologiya aniq maqsadlarni qo'yadigan va ob'ektiv bosqichma-bosqich o'lchash va erishilgan natijalarni yakuniy baholash imkoniyatini saqlaydigan tegishli ilmiy dizaynni o'z ichiga oladi.

Ta'lim texnologiyalarining eng muhim xususiyatlariga quyidagilar kiradi: diagnostik qo'yilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish, bu o'quvchining harakatlarini "biladi", "tushunadi", "qo'llaydi" nuqtai nazaridan tavsiflash orqali erishiladi.

Har bir fan o‘z rivojlanishida o‘z nazariyalarini boyitishda o‘zining ichki ilmiy yo‘nalishlariga tayanib, takomillashib boradi. Hozirgi davrda umuminsoniyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida axborot, ma’lumot beruvchi turli fanlar muayyan darajada pedagogika fani uchun manba bo‘ladi. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning umumiy kamolotiga xizmat qiladi. Tabiat va jamiyat rivojlanishi qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanadi va o‘zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari" kategoriyasining tasnifi va xususiyatlari. 2017, 2018 yil.
2. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil
3. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil